



KONFLIKTLARNI BARTARAF QILISHNING PEDAGOGIK USULLARI VA MEDIATSIYA TEXNOLOGIYASI

Berdiyeva Rohila Bahrom qizi

Choriyeva Gulnora Uralovna

Termiz davlat pedagogika instituti talabalari

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim tizimida yuzaga keladigan nizolarni bartaraf etishning samarali pedagogik usullari hamda mediatsiya texnologiyasining o'rni yoritilgan bo'lib, unda ta'lim muassasalarida o'quvchilar, o'qituvchilar va ot-onalar o'rtasida kelib chiqadigan ziddiyatlarni tahlil qilish, ularning oldini olish hamda hal etish mexanizmlari ko'rib chiqiladi.

Mediatsiya – nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish vositasi sifatida pedagogik jarayonda muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi. Maqolada, shuningdek, o'qituvchilarning konfliktologik savodxonligini oshirish, ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: konflikt, konfliktologiya, pedagogik usullar, pedagogik konfliktlar, mediatsiya texnologiyasi, konfliktni boshqarish, pedagogik faoliyatda nizolar, murosaga erishish, muloqot madaniyati, nizolarni hal etish, psixologik yondashuv, konfliktlarni tahlil qilish, o'zaro tushunish.

Аннотация. В статье рассматриваются эффективные педагогические методы разрешения конфликтов в системе современного образования, а также роль технологии медиации. Анализируются причины возникновения конфликтов между учащимися, педагогами и родителями, предлагаются способы их предупреждения и мирного урегулирования. Особое внимание уделено медиации как важному инструменту ненасильственного разрешения споров в образовательной среде. В работе даны рекомендации по повышению конфликтологической грамотности педагогов и развитию социально-эмоциональных компетенций.

Ключевые слова: конфликт, конфликтология, педагогические методы, педагогические конфликты, медиативно-медиаторная технология, управление конфликтами, конфликты в педагогической деятельности, достижение



компромисса, культура общения, разрешение конфликтов, психологический подход, анализ конфликта, взаимопонимание.

Annotation. This article explores effective pedagogical methods for conflict resolution within the modern education system and examines the role of mediation technology. It analyzes the causes of conflicts between students, teachers, and parents, offering strategies for prevention and peaceful resolution. Mediation is highlighted as a key tool for non-violent dispute settlement in educational settings. The paper also provides recommendations for improving teachers' conflict management skills and enhancing their social-emotional competencies.

Keywords: conflict, conflictology, pedagogical methods, pedagogical conflicts, mediation technology, conflict management, conflicts in pedagogical activity, reaching a compromise, culture of communication, conflict resolution, psychological approach, conflict analysis, mutual understanding.

KIRISH. Ta'lim jarayoni murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy-madaniy muhit hisoblanadi. Bu jarayonda o'quvchilar, o'qituvchilar, ota-onalar va boshqa ta'lim ishtirokchilari o'zaro aloqada bo'lib, ba'zan turli qarama-qarshiliklar, kelishmovchiliklar yoki konfliktlar yuzaga kelishi tabiiy holatdir. Konfliktlarning yuzaga kelishi ta'lim jarayonining faol, jonli ekanidan dalolat bo'lsa-da, ularning samarali hal etilmasligi ta'lim sifati va muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli pedagogik muhitda konfliktlarni bartaraf qilishning samarali usullarini bilish va qo'llash muhimdir. Ushbu maqolada konfliktlarni bartaraf qilishning pedagogik usullari hamda mediatsiya texnologiyasining ta'lim sohasidagi ahamiyati va qo'llanilishi batafsil tahlil qilinadi[10].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI. **Konflikt** - bu ikki yoki undan ortiq tomonlar o'rtasida kelishmovchilik, qarama-qarshilik yoki nizolarning yuzaga kelishidir. Ta'lim jarayonida konfliktlar asosan shaxsiy fikr, qadriyatlar, ehtiyojlar, maqsadlar va manfaatlarning mos kelmasligi sabab yuzaga keladi. Masalan, o'quvchilar o'rtasidagi nizolar, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi tushunmovchiliklar, ota-onalar bilan ta'lim muassasasi o'rtasidagi qarama-qarshiliklar, bular pedagogik muhitda eng ko'p uchraydigan konflikt turlaridir. Konfliktlarning bartaraf etilishi ta'lim muhitida sog'lom va ijobiy munosabatlarni saqlashga, o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga, shuningdek, ishtirokchilarning shaxsiy rivojlanishiga yordam beradi. Shu bois pedagoglar va ta'lim muassasalari rahbariyatlari konfliktlarni vaqtida aniqlash va bartaraf etishga tayyor bo'lishlari kerak[9].



Pedagogik muhitda konfliktlarni hal qilish uchun bir nechta usullar va texnologiyalar mavjud bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Muloqot va suhbat. Konflikt yuzaga kelganda tomonlar o'rtasida samimiy va ochiq muloqotni tashkil etish zarur. Bu jarayonda har bir tomon o'z fikrini erkin ifoda etishi va boshqani diqqat bilan tinglashi muhimdir. Muloqot konfliktni kamaytirish va yechim topishning asosiy kalitidir. O'qituvchi vositachilik qilib, har ikki tomonning fikrini tinglab, ularni tushunishga va kelishuvga erishishga undashi lozim.

Muammoni tahlil qilish. Konfliktning yuzaga kelish sabablarini chuqur o'rganish muhim. Bu sabablarni aniqlash uchun pedagoglar o'quvchilar bilan individual suhbatlar olib borishlari, o'zaro munosabatlarni kuzatishlari va xolis baholashlari kerak. Muammo ildiziga yetish bilan birga, uning yechimlari va oldini olish yo'llari ham aniqlanadi[11].

MUHOKAMA. O'quvchilar va o'qituvchilar uchun individual yoki guruh bo'lib maslahatlar tashkil etish, psixologik treninglar o'tkazish muhimdir. Bu orqali ishtirokchilar o'zaro munosabatlarni yaxshilash, stressni boshqarish, konfliktlarni konstruktiv tarzda hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

O'quvchilarga hamkorlikda ishlash, bir-birini tushunish va murosaga kelish ko'nikmalarini o'rgatish konfliktlarni kamaytiradi. Bu maqsadda guruh ishlari, o'yinlar, rolli mashqlar va jamoaviy loyihalar samarali vositalardir[8].

Rolli o'yinlar va treninglar. Konflikt vaziyatlarini simulyatsiya qilish va uni hal qilish usullarini o'rganish uchun rolli o'yinlar yaxshi vositadir. Ular orqali o'quvchilar va o'qituvchilar o'zlarini boshqalar o'rnida ko'rib, empatiya va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Mediatsiya — bu konfliktlarni hal qilishning neytral va mustaqil vositachilik asosidagi texnologiyasi bo'lib, unda mediator tomonlarni o'zaro kelishuvga yetaklaydi.

Mediatsiyaning mohiyati va afzalliklari. Mediatsiya ishtirokchilarga o'zaro kelishuv asosida nizolarni hal qilish imkonini beradi. Mediator taraflarning nuqtai nazarini tinglaydi, muammoni tushunishga yordam beradi va birgalikda yechimlar topishga ko'maklashadi. Mediatsiyaning afzalliklari:

- ixtiyoriylik – har bir tomon mediatsiyada ishtirok etishni o'z ixtiyorida amalga oshiradi;
- maxfiylik – mediatsiya jarayoni sir saqlanadi, bu esa tomonlarning ishonchini oshiradi;
- neytrallik – mediator hech qanday tomonning manfaatlarini himoya qilmaydi, faqat adolatli va haqqoniy yechim topishga yordam beradi;



- tezlik va arzonlik – sud jarayonlariga nisbatan mediatsiya tezroq va iqtisodiy jihatdan foydaliroq;
- munozaralarning yumshatilishi – mediatsiya natijasida tomonlar o‘zaro hurmatni saqlagan holda kelishuvga erishadilar[12].

Mediatsiya jarayoni bosqichlari

1. Boshlang‘ich uchrashuv – mediator tomonlarni kutib oladi, jarayon qoidalarini tushuntiradi, ishtirokchilarning roziligini oladi.
2. Muammo va nuqtai nazarni tinglash – har bir tomon o‘z fikrini va his-tuyg‘ularini ifodalaydi.
3. Muammoni tahlil qilish va yechimlarni izlash – mediator yordamida tomonlar birgalikda yechim variantlarini ko‘rib chiqadilar.
4. Kelishuvga erishish – tomonlar o‘zaro kelishilgan yechimni qabul qiladilar.
5. Kelishuvni rasmiylashtirish – yozma shaklda kelishuv tuziladi va agar zarur bo‘lsa, huquqiy kuchga ega bo‘ladi[13].

NATIJARLAR. Ta‘lim muhitida qo‘llanilishiga ko‘ra mediatsiya texnologiyasi konfliktlarni bartaraf qilish va ijobiy muhitni yaratishda muhim vosita hisoblanadi. Mediatsiya quyidagi holatlarda samarali:

- o‘quvchilar o‘rtasidagi nizolar va tushunmovchiliklarni hal etishda;
- o‘qituvchi va ota-ona o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilashda;
- jamoaviy ishda yuzaga keladigan kelishmovchiliklarni bartaraf etishda.

Mediatsiya orqali ta‘lim muassasasida hurmat, ishonch va hamkorlik muhitini shakllantirish mumkin. Bu esa o‘quvchilarni nafaqat pedagogik jihatdan, balki shaxsiy rivojlanish nuqtai nazaridan ham qo‘llab-quvvatlaydi[7].

XULOSA. Pedagogik muhitda konfliktlarni bartaraf qilish ta‘lim sifatining asosiy omillaridan bu muloqot jarayonini samarali tashkillash, muammoni tahlil qilish, psixologik maslahatlar, hamkorlik va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish kabi pedagogik usullar konfliktlarni kamaytirishga xizmat qilish bilan birgalikda, mediatsiya texnologiyasi yangi va samarali yondashuv sifatida ta‘lim jarayonida yuzaga keladigan nizolarni hal qilishga imkon beradi. Mediatsiyaning ixtiyoriy, maxfiy va neytral tabiatga ega bo‘lishi ta‘lim ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuning uchun ta‘lim muassasalari mediatsiya jarayonlarini joriy qilish va rivojlantirishga katta e‘tibor qaratishlari lozim.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдукаримов К.Х. Педагогик конфликтлар ва уларни ҳал этиш йўллари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2019.
2. Иноятова Н.Ф. Махсус педагогика. – Тошкент: “Иқтисодиёт”, 2020.
3. Назарова Ф.Н. Педагогик маҳорат ва муомала маданияти. – Тошкент: “Fan va texnologiya”, 2018.
4. Каримов Э.Ш. Муносабат психологияси ва конфликтология. – Тошкент: “Ilm ziyo”, 2021.
5. Rahmonov M.R. Pedagogik jarayonda nizolarni boshqarish va hal etish texnologiyalari // “Ta’lim va taraqqiyot tahlili” ilmiy jurnali, 2022, №3. – B. 45–51.
6. Abdullaeva Z.N. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi nizolarni bartaraf etishda mediatsiyaning o‘rni // “Pedagogik ta’lim” jurnali, 2023, №2. – B. 22–27.
7. Saydulloyevich, O. Y. (2022). The educational and moral significance of the spiritual heritage of Imam ghazali. *European Scholar Journal*, 3(6), 153-156.
8. Saydulloyevich, O. Y. (2023). Samples of the Wisdom of Imam Abu Hamid Ghazali Quoted in the Great Works. *World Bulletin of Social Sciences*, 25, 18-21.
9. Saydulloyevich, O. Y., & Erkinova, S. O. (2024). ABU HOMID G‘AZZOLIY ASARLARIDA “YOLG‘ON SO‘ZLASH VA YOLG‘ON QASAM ICHISH” YOMON ILLAT EKANLIGI HAQIDAGI QARASHLARI. *O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(35), 505-510.
10. Saydulloyevich, O. Y. (2024). TALABALARNI MANAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA ABU HOMID G‘AZZOLIY ASARLARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI. *O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(35), 511-516.
11. Ismoilova Durдона G‘ulom Qizi (2024). TALABALARNI MA‘NAVIY-AXLOQIY TARBIYASIDA ABU HOMID G‘AZZOLIY ASARLARINING TUTGAN O‘RNI. *Research Focus*, 3 (12), 109-114. doi: 10.5281/zenodo.14532269
12. Shavkatovna, X. M. (2025). Pedagogik nazorat va baholash. *ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI*, 2(6), 124-126.
13. Shavkatovna, X. M., & Akbarovna, N. D. (2024). GENDER YONDASHUV ASOSIDA TALABA-QIZLARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI. *O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(35), 494-498.